

## O`ZBEKISTONDA SON JIHATDANDAN KAMAYIB KETAYOTGAN KAMYOB TURLAR

**Muxiddinova Muxlisa Muxiddin qizi**

Termiz davlat universiteti tabiiy fanlar fakulteti talabasi

[muxlisamuxiddinova@gmail.com](mailto:muxlisamuxiddinova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O`zbekistonda uchrovchi son jihatdan kamayib ketayotgan kamyob turlar haqida .

**Kalit so`zlar:** kamyob, noyob, endem, relik, qo`ng`ir qumuzum, yovvoyi chilonjiyda, qumchil yurineya, hisor dionisiyasi, hisor iskandarasi, boysun shirachi.

Tabiatdan oqilona foydalanmaslik natijasida ayrim turlar kamayib ,ayrim turlar esa yo`qolib bormoqda. Aynan mana shunday o`simliklar turlarini muhofaza qilish maqsadida maxsus hukumat qarorlari asosida 1979-yilda O`zbekiston Respublikasining Qizil Kitobi ta`sis etildi. Qizil Kitob- nabotot olamining noyob, kamyob va yo`qolib ketish xavfi ostida turgan o`simliklar haqida mukammal ma`lumot beruvchi, ularni muhofaza qiluvchi muhim hujjatdir.

Ushbu maqolamizda O`zbekistondagi son jihatdan kamayib ketayotgan kamyob turlar haqida ma`lumotlar keltirib o`tamiz.

**Qo`ng`ir qumuzum (*Malocarpus crithmifolius*) Мягкоплодник критмолистный.** Bu o`simlik turi Isiriqdoshlar ( Peganaceae) oilasiga mansub butacha hisoblanadi. Gullari ikki jinsli, qo`sh gulqo`rg`oni sariq. Barglari etli, qalami-nashtarsimon, qirqilgan, uzunligi 7sm, eni 6 sm. Mevasi 3 uyali, ko`p urug`li, yassi-yumaloq, diametric 1-1,5 sm etli, sershira, qo`ng`ir-qizg`ish rangli. Iyun-sentabr oylarida gullab, iyul- oktabrda pishadi. O`zbekistonning shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Mahalliy xalqlar uni mevasi uchun yig`adi.

**Kamyoblik darajasi.** O`zbekistondagi yagona turga ega turkumning relik turi.

**Tarqalishi:** Ustyurtda tarqalgan(Qoraqalpog`iston). Qozog`iston, Turkmaniston va Eronda ham o`sadi.

**Yovvoyi chilonjiyda (*Zyzyphus jujube* Mill.) Унаби обыкновенная.** Bu o`simlik turi chilonjiyda, unabi, xitoy xurmosi deb ham ataladi. Bo`yi 8-12 metr ga yetadigan ,tarvaqaylagan, mevasiz shoxlarida barglari ikki qator bo`lib joylashgan, Yon bargchalari yirik tikanlardan iborat, tanasining yo`g`onligi 40-60 smgacha yetadigan daraxt hisoblanadi. 100 yildan ortiq yashaydi. Barglari cho`ziq-tuxumsimon, uch tomirli, chetlari tishlisimon o`yilgan. Gullari mayda, yashilroq rangli, o`tkir hidli. Mevasi cho`ziq yumaloq yoki yumaloq, diametri 1,5 sm gacha yetadi. Iyun-sentabr oyida gullab meva beradi. Yovvoyi hamda madaniy turlari zararkunanda va kasalliklarga chidamli.Tabiatda yakka-yakka holda yoki kichik to`plar hosil qilib o`sadi. Urug`idan va Ildiz bachkilaridan ko`payadi. O`zbekistonga 1967-yilda Xitoy va 1934-yilda Kliforniya (AQSH) dan Tan Yanszao, U Sinxun navlari keltirilgan.

**Kamyoblik darajasi:** Areali keskin qisqarib borayotgan kamyob, relik, subtropik tur.

**Tarqalishi:** G`arbiy Tyanshan ( Ugom, Chotqol,Qorjontog` tizmalari) va Hisor tizmalari (G`uzor daryo havzasida, Sho`rob, Qushtutsay, Zinchap, Zarchov, Duoba va Tamshut qishloqlari atroflari) da tarqalgan (Toshkent, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari) Tojikiston turkmaniston, Kavkaz ortida

ham tarqalgan.

**Qumchil yurineya (Jurinea psammophila Ijtin) Наголоватка песколюбивая.** Qumchil yurineya o`simligining bo`yi 50 sm gacha yetadigan ko`p yillik o`t. Poyasi tik , ko`p, kulrang-chalkash tukli, yo`l yo`l jo`yakli, novdalari yakka boshchali . Barglarining har ikki tomoni kulrang-yashil, tukli, pastki tomoni qalin chalkash tukli. Yopirma va poyaning pastki qismidagi barglari bandli, patsimon va bo`lingan yoki patsimon ajralgan. Poyadagi boshqa barglari bandsiz, chetlari butun , uchi o`tkir. O`rama bargchalari savatchaga yopishgan, nashtarsimon chetlari qadir- budir. Toji qirmizi pushti rangli , tashqi tomoni bezchali. Urug`i tik jo`yakli . May oyida gullab, iyunda mevasi yetiladi.

**Kamyoblik darajasi:** Qizilqumdagı juda kamyob, endem o`simlik.

**Tarqalishi:** Qizilqumda Oqtog` etaklarida tarqalgan.

**Hisor dionisiyasi (Dionysia hissarica Lipsky) Дионисия гиссарская.** Bu o`simlik qoyalarning yoriqlarida osilib o`sadigan yostiqsimon, namchil yarim butacha. Ildiz bo`g`izidan o`sib chiqqan bir tutam poyalaridagi burglar ketma-ket joylashgan. Eski yopirma barglari saqlanib qoladi. Barglari yumshoq, yupqa, tishchali, bezchali tuklar bilan qoplangan, o`ziga xos hidga ega. Gullari sariq 2-3 ta, gul oldi bargchalari bilan o`ralgan. Iyun- iyul oylarida gullab, meva beradi.

**Kamyoblik darajasi:** Pomir- Oloyning janubi-g`arbidagi kichik maydonlarda saqlanib qolgan kamyob, endem o`simlik.

**Tarqalishi:** Hisor tizmasining janubiy yonbag`irlarida ( Sangardak daryosining o`rta oqimida) tarqalgan (Surxondaryo viloyati).

**Hisor iskandarasi (Iscandera hissarica N.Busch.) Искандера гиссарская.** Hisor iskandarasi Karamdoshlar ( Brassicaceae) oilasiga mansub, bo`yi 30 sm ga yetadigan ko`p yillik o`t. Barglari qisqa bandli, uzunligi 1-8 sm, eni 3-15 mm, yulduzsimon tukli. Gulpoyasi bargsiz. Kosachabarglari cho`ziq, binafsha rangli, uzunligi 8 mm, eni 6,5 mm. qo`zog`i yuqoriga qaragan, 3-5 sm uzunlikda, keng nashtarsimon yoki cho`ziq –qalami, yulduzsimon va bezsimon tuklar bilan qoplangan. May oyida gullab mevasi iyun- iyuk oyida yetiladi.

**Kamyoblik darajasi:** Hisor tizmasidagi kamyob, endem o`simlik.

**Tarqalishi:** Hisor tog`i (Qorako`l, Xandiza va To`palon daryolarining yuqori irmoqlar)da tarqalgan (Surxondaryo viloyati).

**Boysun shirachi (Eremurus baissunensis O. Fedtsch.) Ширач байсуниский.** Boysun shirachi shirachdoshlar oilasiga mansub bo`yi 60-80 smga yetadigan ko`p yillik o`t. Qo`riqxonada Bog`lidara, Tangi-Dara hamda Xatak qishloqlari atroflarida yakka-yakka holda tarqalgan. Ola jinsli, mayda shag`al toshli gipsli yerlarda o`sadi.

Ildizpoyasi qisqa, urchuqsimon yo`g`onlashgan ildizlarining eni 4-6 mm ni tashkil etadi. Barglari ingichka qalami, eni 4-6 mm. shingili siyrak, ko`p gulli, uzunligi 24-45 sm. Guloldi bargchalari yirik, uchburchak- nashtarsimon. Shingilining pastidagi gullarining barglari gulqo`rg`onidan 1.5 marta uzun. Gulqo`rg`on bargchalari oq, bitta bitta tomirli. Urug`lari ingichka qanotli. Aprel-may oylarida gullab , may- iyun oylarida mevasi pishib yetiladi.

**Kamyoblik darajasi:** Janubi-g`arbiy Pomir- Oloydagi juda kamayib ketgan endem o`simlik.

**Tarqalishi:** Dehqonobod, Boysun hamda Denov shaharlari oralig`idagi past tog`larda tarqalgan. (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari)

Xulosa o`rnida shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda noyob, kamyob, endem hamda manzarali o`simliklar juda ham ko`p. Qizil kitobga kiritilgan ushbu kamyob o`simliklarning tabiatda o`sib turgan joylari nazorat ostiga olinadi va madaniy sharoitda ekib o`rganiladi, muhofaza qilinadi. Ushbu kamyob o`simliklarning biologik xususiyatlarini tabiiy va madaniy sharoitda o`rganish, aynan mana shunday o`simliklar o`suvchi joylarni maxsus muhofazaga olish lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O`zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”i . Toshkent 2009.
2. Белоусова Л.С., Денисова Л.В., Никитина С.В. Редкие растения СССР. М. 1979. С. 161, 216
3. Бочанцев В.П., Введенский А.И. Сем. Cruciferae// Флора Узбекистана. Т.3. Ташкент. Изд-во АН УзССР. 1955 С. 408
4. Введенский А.И. Новая секция рода *Astragalus*// Бот. Мат. Герб. АН УзССР. Вып. 15. Ташкент.1959 С. 10-12.
5. Ильин М.М. Род *Jurinea* // Флора СССР. Т. 27. М. –Л. Изд-во АН СССР 1962. С. 609-614, 631-635, 641-642, 702-703
6. Красная книга Узбекской ССР. Растения . Ташкент. Изд-во ФАН. 1984. С. 150.
7. Федченко. Б.А. Род *Eremurus* // Флора СССР. . Изд-во АН СССР. 1956, С 498-58
8. Смольянинова Л.А. Род *Dlonysia* // Флора СССР. Т. 18 АН СССР. 1952 С. 208-217.
9. Саркисова С.А. Род *Iskandera* // Определитель растений Средней Азии. Ташкент. Изд-во ФАН. 1974. С. 151